

O'QUVCHILAR INDIVIDUAL RIVOJLANISHI NATIJALARINI BAHOLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Kuchkarov Sarvar Sattarovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
kuchkarov849@gmail.com

Annotatsiya. O'quvchilar individual rivojlanishi natijalarini baholashda ularni guruhlariga bo'lib, shaxsga yo'naltirilgan va differensial yondashuvni qo'llagan holda o'qitish ularning qiziqishi, qobiliyatlari va imkoniyatlarini to'la e'tiborga olinishiga olib keladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qituvchidagi o'z kasbining mohiyatini anglab yetish, qadriyatlar va maqsadlarni tanlash, bolalar uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish talablarni belgilaydi. Maqolada o'quvchilar individual rivojlanishi natijalarini baholashning pedagogik asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. insonparvarlik, differetsiallashtirish, baholash, hamkorlik, samaradorlik, amaliyot, qiziqish.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТОВ ИНДИВИДУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. При оценке результатов индивидуального развития учащихся разделение их на группы и обучение с использованием личностно-ориентированного и дифференцированного подхода позволяет в полной мере учитывать их интересы, способности и возможности. Личностно-ориентированное образование требует от учителя понимания сущности своей профессии, выбора ценностей и целей, а также чувства личной ответственности за детей. В статье описываются педагогические основы оценки результатов индивидуального развития учащихся.

Ключевые слова: гуманизм, дифференциация, оценка, сотрудничество, эффективность, практика, интерес.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR ASSESSING THE RESULTS OF STUDENTS' INDIVIDUAL DEVELOPMENT

Abstract. When assessing students' individual development, dividing them into groups and teaching them using a student-centered and differentiated approach allows for their interests, abilities, and potential to be fully taken into account. Student-centered education requires teachers to understand the essence of their profession, to choose values and goals, and to have a sense of personal responsibility for their students. This article describes the pedagogical foundations for assessing students' individual development.

Keywords: humanism, differentiation, assessment, collaboration, effectiveness, practice, interest.

Kirish

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil qilishda o'quvchilarning individual sifatlari, ular tabiatidagi o'ziga xoslikni yetarlicha e'tiborga olish, darslarda shaxsga yo'naltirilgan va differensial yondashuvni joriy etish ularning individual sifatlarini namoyon qilishi, to'g'ri kasb tanlashlari uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida ikoniyati cheklangan o'quvchilarga yaratilgan sharoitlar, ta'lim tamoyillari o'zining huquqiy-me'yoriy va nazariy asoslariga ega.

Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, o'quvchilarning individual rivojlanish natijalarini tahlil qilish va tajribalarni analitik tahlil qilish o'quvchilar individual rivojlanishi natijalarini baholashning pedagogik asoslarini ishlab chiqish muammosining dolzarbligi, ta'lim jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan va differensial yondashuvni joriy etishning yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi hamda pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi bilan bog'liq bir qator yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish kontekstida individual rivojlanish natijalarini tahlil qilishning kvalimetrik imkoniyatlari sifat ko'rsatkichlari tizimi orqali konseptual jihatlarini aniqlag, baholash jarayoni faqat natijani qayd etish emas, balki rivojlanish dinamikasini ifodalovchi ko'p parametrlilik indikatorlar majmuasi asosida amalga oshirilishning ilmiy jihatlarini asoslaydi. Kvalimetrik yondashuv individual yutuqlarni sonli va mazmunli ko'rsatkichlar uyg'unligida baholash imkonini berishi, shu orqali inklyuziv ta'lim samaradorligini obyektiv o'lchash mexanizmini shakllantiradi.

Sifat ko'rsatkichlari tizimi doirasida o'quv materialini o'zlashtirish dinamikasi statik natija sifatida emas, balki bosqichli rivojlanish trayektoriyasi sifatida talqin etilishi, o'zlashtirish darajasining o'sish sur'ati, barqarorligi va mustaqil qo'llash imkoniyatini ifodalovchi indikatorlar o'zaro bog'liq holda tahlil qilinishi zarurligini asoslaydi. Mazkur yondashuv o'quvchining individual imkoniyatlari va ta'lim sharoiti o'rtasidagi funksional mutanosiblikni aniqlashga xizmat qiladi hamda o'quvchilar individual rivojlanishi natijalarini baholashda ularni guruhlarga bo'lib, shaxsga yo'naltirilgan va differensial yondashuvni qo'llagan holda o'qitish ularning qiziqishi, qobiliyatlari va imkoniyatlarini to'la e'tiborga olinishiga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Umumiy o'rta ta'lim tizimida differetsiallashtirish zamonaviy ta'limning asosiy insonparvarlik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. N.A.Muslimov differetsial yondashuvni o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari hisobga olinuvchi, har bir o'quvchiga ta'lim dasturini o'zlashtirishiga imkon beruvchi, o'z qiziqish va

qobiliyatlariga mos holda rivojlanishiga imkon beruvchi ta'limning asosiy shakli sifatida e'tirof etgan [5] bo'lsa, differensial ta'lim, guruhlariga bo'lib o'qitish masalalari bo'yicha O'.Q.Tolipov, O.N.Armenko, K.S.Bajin kabi olimlar tadqiqot ishlari olib bordishgan [6; 2; 8]. Masalan, O'.Q.Tolipov tomonidan ta'limda differensial yondashuvni qo'llash haqida quyidagicha fikr bildirilgan: "ma'lumki, hozirgi ta'lim tizimi sinfdagi barcha o'quvchilarga bir xil yondashishni tavsiya etadi. Ulardagi o'ziga xoslik hisobga olinmaydi. Bir xil talab esa sinfdagi barcha o'quvchilarning dinamik rivojini ta'minlashga imkon bermaydi. Differensial ta'limning zamirida individuallashtirish yotadi va u har bir o'quvchining o'ziga xos imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi" [6].

N.Boltayevaning fikriga ko'ra, inson faoliyati – uning rivojlanishi uchun zarur sharoit hisoblanadi va bu jarayonda hayotiy tajribaga ega bo'ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o'zlashtiradi, malaka va ko'nikma hosil qiladi. Faoliyat va psixik jarayonlarda rivojlanadi, insonning aqliy, emotsional va irodaviy sifatlari, uning qobiliyati va fe'l-atvori shakllanadi [3].

O'quvchilarni individual rivojlantirishning usul-vositalari sifatida shaxsga yo'naltirilgan va differensial yondashuvdan foydalanish bugungi kunda dolzarb bo'lib, umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'limni differentsiallashtirish tushunchasini bir guruh olimlar individuallashtirish, har bir o'quvchining o'ziga xos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ikkinchi guruh olimlar o'quvchilar ehtiyoji va qiziqishlariga javob bera oluvchi eng maqbul majmua yaratish, ularni mashg'ulotlarga jalb qilishda ixtiyoriylik mezonini maxsus tanlov metodi bilan uyg'unlashtirish masalalari o'rganilgan. Xususan, o'quvchilar individual rivojlanishi masalasiga qaratilgan izlanishlar T.A.Andreeva, S.I.Golodlar tomonidan olib borilgan [1; 4]. Shuningdek, o'quv mashg'ulotlar mazmunini tanlashda individual va individual-tabaqalashtirilgan metodlardan o'rinli foydalanish, kasb-hunarga yo'naltirish ishlari unumdorligini oshirish maqsadida shaxs sifatlarini tashhis qilish metodikasini ishlab chiqish hamda o'quvchilarni ma'lum bir klassifikatsiyaga oid yosh va individual xususiyatlaridan kelib chiqib dastlabki guruhlariga ajratish sifatida talqin qilingan. Y.V.Bondarevskayaning fikricha, "inson shaxsida namoyon bo'ladigan barcha psixologik jarayonlar, uning mavjudligi va o'ziga xos tabiatining belgisidir" [9]. Bundan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarning psixologik jihatlariga xam e'tibor berish zaruratini keltirib chiqaradi, deyish mumkin.

Differensial yondashuv o'quvchilarning xilma-xil o'rganish uslublariga e'tibor qaratib, shu xilma-xilliklarga moslashtirilgan ta'lim yondashuvlari va mashg'ulotlarni loyihalashni o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonini individuallashtirish ma'no jihatdan ajralib turadigan o'quvchilarning alohida ta'lim ehtiyojlarini hisobga oluvchi ta'lim texnologiyasini anglatadi. Mazkur yondashuvlar o'quvchining individual

imkoniyatlari va ta'lim sharoiti o'rtasidagi funksional mutanosiblikni aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Differensial ta'lim Karol Ann Tomlinson tomonidan asos solingan tizim bo'lib, yuqorida ta'kidlanganidek ta'lim strategiyalari, qo'llanmalar va baholash mezonlari o'quvchilarning turli ehtiyojlariga moslanadi, shuningdek ta'lim maqsadi barcha uchun birdek qoladi [7]. Bu ularda o'ziga bo'lgan ishonch hissini hamda o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishiga hissa qo'shadi.

“Ta'limni differetsiallashtirish” tushunchasini talqin qilishdagi bunday xilma-xillik uning mohiyatini namoyon qiluvchi o'quvchilar individual rivojlanishi natijalarini baholashning mazmuni, samarali shakl va metodlar tizimini ishlab chiqish, maktab, oila hamda keng jamoatchilik hamkorligini ta'minlashga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish, uning samaradorlik darajasini aniqlash kabi masalalar bilan bog'liq bo'ladi.

Differensial yondashuv asosida o'qitish an'anaviy usullardan sezilarli darajada farq qiladi. Differensial yondashuv asosida o'qitish amaliyoti o'qituvchilarni asta-sekin ustuvorliklarini o'zgartirishga undaydi. Ular o'zlarini bilimlarni boshqalarga doimiy ravishda yetkazadigan “bilim saqlovchilari” sifatida ko'rishni to'xtatadilar va o'z navbatida o'z maqsadlarini o'rganish imkoniyatlarini osonlashtirish deb biladilar. Material va mazmunning muhimligini anglagan holda, bu o'qituvchilar “barcha javoblarni yodlashga” e'tibor qaratmaydilar, balki birinchi navbatda o'quvchilarini diqqat bilan tinglaydilar. Keyin ular bir tomondan imkoniyati cheklangan bolalarning qiziqishini uyg'otadigan, ikkinchi tomondan esa mavzuni tushunish va o'zlashtirishga olib keladigan turli xil o'quv muhitlarini yaratiladi. Natijada, inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda individual rivojlanish natijalarini tahlil qilishning kvalimetrik imkoniyatlari sifat ko'rsatkichlari tizimida o'quv materialini o'zlashtirish dinamikasi hamda adaptatsiya intervali monitoringini differensial yondashuvli kontekstda maqbullashtirish imkoniyati yaratiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qituvchidagi o'z kasbining mohiyatini anglab yetish, qadriyatlar va maqsadlarni tanlash, bolalar uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, insonparvar pedagogik pozitsiya, ta'lim-tarbiya jarayonlarini ijodiy asosda qurish, o'z pedagogik “asar”larining sifati va boshqalarga yuqori talablarni belgilaydi. talablariga moslashish davomiyligi, qo'llab-quvvatlash intensivligining bosqichma-bosqich kamayishi va mustaqillikka o'tish dinamikasi maxsus indikatorlar orqali o'lchanishi mumkinligi ko'rsatib berildi. Adaptatsiya intervalini tizimli monitoring qilish inklyuziv muhitda rivojlanish barqarorligini baholash va ta'lim jarayonini korrrektirovka qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchining individual stili qo'shimcha ko'rsatkichlarga ega bo'lish, ijodiy va insonparvar yo'nalishga ega bo'lgan rivojlanish istiqbollari belgilaydi.

Tahlil va natijalar

Ma'lumki, shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, raqobatbardosh shaxsni shakllantirish doimiy ravishda, ya'ni butun hayoti davomida sodir bo'ladi. Darhaqiqat, zamonaviy jamiyatda shaxs mobil (akademik, ijtimoiy va kasbiy), uzluksiz ta'lim va o'z-o'zini o'qitishga, shuningdek, kompetensiyalar hamda shaxsiy va kasbiy fazilatlarni rivojlantirishga tayyor bo'lishi kerak.

Uzluksiz ta'lim yoki "umrbod ta'lim" tushunchasi hozirda mashhur. Zamonaviy dunyoda inson faoliyatining har qanday sohasi shunchalik jadal rivojlanmoqdaki, shaxsning kompetensiyalari hamda shaxsiy va kasbiy fazilatlarni rivojlantirish doimiy bo'lishi kerak, aks holda shaxs "zamon bilan hamnafas bo'la olmaydi".

Uzluksiz ta'lim tizimi rivojlangani va darajalar o'rtasida uzluksizlikni ta'minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, "umrbod ta'lim" konsepsiyasini amalga oshirish ham, uzluksiz ta'lim tizimining bosqichlari o'rtasida uzluksizlikni ta'minlash ham faqat shaxs keyingi ta'lim bosqichida o'qishga tayyor bo'lgandagina mumkinligi aniq. Bundan tashqari, uzluksiz ta'lim makonida yo'nalishni erkin tanlash faqat shaxs kompetensiyalarni (shaxsiy va kasbiy fazilatlarni) kerakli darajada rivojlantirgan taqdirdagina mumkin.

O'quvchilar individual rivojlanishi natijalari shaxsga yo'naltirilgan va differensial yondashuv, faol o'rganish va mustaqil ish orqali shaxsiy salohiyatni ochishga bog'liq. Asosiy yondashuvlar individual o'quv rejalarini tuzish, repetitorlik, amaliy tadqiqotlar, ishbilarmonlik o'yinlari va o'quvchining ko'nikmalari, qobiliyatlari va maqsadlariga moslashtirilgan treninglarni o'z ichiga oladi.

Individual rivojlanishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi:

- individual o'quv rejalarini: o'quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash asosida o'rganish yo'llarini ishlab chiqish;

- faol ta'lim metodlari: kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ishbilarmonlik o'yinlari, muammoga asoslangan modellashtirish va keys metodlari;

- repetitorlik: o'qituvchining o'quvchining salohiyatini oshirishga qaratilgan shaxsiy yordami;

- mustaqil ish: adabiyotlarni tahlil qilish, amaliy muammolarni yechish, tezislar yozish va bajarilgan ishlarni mustaqil tahlil qilish;

- psixologik va pedagogik treninglar: shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, o'zini o'zi anglash va hissiy aqlni rivojlantirishga qaratiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan va differensial yondashuv asosida o'qitish bizga har bir o'quvchining o'ziga xos yo'nalishiga metodlar, texnikalar va ish sur'atini moslashuvchan ravishda moslashtirish imkonini beradi. Bunda ta'lim oluvchilarning kognitiv, kommunikativ va psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ko'rsatkichlar vaznini variativ belgilash imkoniyati nazarda tutildi. Bu esa universal

va bir xil mezonlarga asoslangan baholashdan farqli ravishda, individual rivojlanish trayektoriyasiga moslashuvchan kvalimetrik modelni qo'llashga asos yaratdi.

Xulosa va takliflar

Individual rivojlanish natijalarini tahlil qilishning kvalimetrik tahlili sifat ko'rsatkichlarini (shaxsiyat, ta'lim, jismoniy) miqdoriy o'lchash, ularni ballar, indekslar yoki darajalarga aylantirishni o'z ichiga oladi. Bu dinamikani obyektiv kuzatish, individual rivojlanish trayektoriyalarini qurish, yashirin qonuniyatlarni aniqlash va natijalarni normativ standartlar bilan taqqoslash imkonini beradi.

Kvalimetrik tahlilning asosiy imkoniyatlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin.

Sifat atributlarini miqdoriy baholash: Subyektiv xususiyatlarni (masalan, ijodkorlik yoki motivatsiya darajasi) metrologiya bilan to'g'ridan-to'g'ri o'lchab bo'lmaydigan obyektiv raqamli ma'lumotlarga aylantirish.

Dinamikani monitoring qilish: Muayyan shaxsning (bola, o'quvchi) vaqt o'tishi bilan rivojlanishini tahlil qilish, bu nafaqat yosh normalariga rioya qilishni, balki shaxsiy o'sishni ham qayd etishga yordam beradi.

Integratsiyalashgan ko'rsatkichlarni tuzish: Kvalimetriya turli ko'rsatkichlarni (masalan, akademik ko'rsatkichlar, psixofizik parametrlar, ijtimoiy ko'nikmalar) rivojlanish sifatining yagona integral indeksiga birlashtirish imkonini beradi.

Qiyosiy tahlil: Shaxsiy rivojlanish natijalarini boshqalarning natijalari (me'yoriy modellar) yoki shaxsning avvalgi yutuqlari bilan ob'ektiv taqqoslash qobiliyati.

Diagnostika va prognozlash: "O'sish nuqtalari" va "xavf zonalarini" aniqlash, shuningdek, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida kelajakdagi yutuqlarni prognoz qilish.

Kvalimetrik tahlil shaxsga yo'naltirilgan va differensial yondashuv asosida o'qitish dasturlarini yaratish uchun juda muhimdir, chunki u rivojlanish jarayonini "ko'rinadigan" va boshqariladigan qiladi.

Shunday qilib, o'quvchilar individual rivojlanishi natijalarini baholash insonning atrof olamga bo'lgan faol munosabatiga asoslanadi. Differensial yondashuvli kontekstda sifat ko'rsatkichlarini maqbullashtirish mexanizmi ishlab chiqildi. Bu munosabat motivatsiyalar xarakteriga ko'ra ko'p jihatdan uning bajarilishidagi harakatga shu bilan birga maqsadga erishishdagi natijaga bog'liq. Faoliyatning motivi va maqsadi inson hayotining ijtimoiy sharoiti va uning individual rivojlanish darajasi bilan ham belgilanadi. Faoliyat bar qator o'zaro ichki bog'langan harakatlar orqali amalga oshiriladi. Biroq yaxlit holda har bir faoliyat ongli xarakterga ega bo'ladi. Ongli maqsad qonun sifatida inson harakatining usul va xarakterini belgilab beradi. U istalgan natijaga erishish yo'lida paydo bo'ladigan to'siqlarni faol yengib o'tishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Андреева Т.А. Семейная психология. - М.: 2004. - 242 б.
2. Артеменко О.Н., Реализация дифференцированного подхода в обучении младших школьников // Сибирский педагогический журнал. - 2009. №7. -С. 128-134.
3. Boltayeva Sh.T., Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. Monografiya. Navoiy- 2012-y.
4. Голод С.И. Стабильность семьи: социологический и демографический аспекты. — Л.: ЛГУ, 2004. — 190 б.
5. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // J. Kasb hunar ta'limi. - 2004. -№ 3. -В. 24.
6. Tolipov O'. Ta'limda tabaqalashtirish. "Maktab va hayot" ilmiy-metodik jurnaliga ilova. Uslubiy qo'llanma. Toshkent-2003.
7. Tomlinson, C. A. Sharing Responsibility for Differentiating Instruction. Roper Review, 26(4), 2004. – p. 188-200.
8. Бажин, К. С. Технология дифференцированного обучения: психолого-педагогический аспект [Текст] / К. С. Бажин // Педагогика и психология. - 2011. - № 1-1 - С.164-167.
9. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. – Ростов на Дону: 2000. – С. 204.